



THE EFFECT OF IRAN'S FOREIGN POLICY ON THE REGIONAL ORDER OF THE MIDDLE EAST

Fatima R. Nazarova

Master's student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: fotimanazarova991229@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: “Neither West, nor East, only Islam”, Gulf region, “Dialogue of civilizations” (گفتگوی تمدن ها), “Shia crescent”, “Looking to the East”.

Abstract: This article discusses the specific directions of the foreign policy of the Islamic Republic of Iran and the impact of this foreign policy on the regional order of the Middle East.

Received: 28.04.24

Accepted: 30.04.24

Published: 02.05.24

YAQIN SHARQ MINTAQAVIY TARTIBOTIGA ERON TASHQI SIYOSATINING TA'SIRI

Fotima R. Nazarova

magistratura talabasi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: fotimanazarova991229@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: “Na G'arb, Na Sharq, faqat Islom”, Ko'rfaz mintaqasi, “Tamaddunlar muloqoti” (گفتگوی تمدن ها), “Shia hiloli”, “Sharqqa nigoh”.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Eron Islom Respublikasi tashqi siyosatining o'ziga xos yo'nalishlari va ushbu tashqi siyosatning Yaqin Sharq mintaqaviy tartibotiga ta'siri masalalari muhoma etiladi.

ВЛИЯНИЕ ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ ИРАНА НА РЕГИОНАЛЬНЫЙ ПОРЯДОК БЛИЖНЕГО ВОСТОКА

Фатима Р. Назарова

Студент магистратура

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

E-mail: fotimanazarova991229@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: “Ни Запад, ни Восток, только ислам”, регион Персидского залива, “Диалог цивилизаций” (گفتگوی تمدن ها), “Шиитский полумесяц”, “Взгляд на Восток”.	Аннотация: В данной статье рассматриваются конкретные направления внешней политики Исламской Республики Иран и влияние этой внешней политики на региональный порядок Ближнего Востока.
---	---

KIRISH

Eron Islom Respublikasi ham Yaqin Sharq mintaqasining muhim aktorlaridan biri hisoblanadi. Uning tarixi, jo‘g‘rofiy joylashuvi, tabiiy energetika resurslari, harbiy qudrati va boshqa omillar rasmiy Tehron tashqi siyosatining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Eron tashqi siyosati haqida so‘z yuritganda, avvalo ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan retrospektiv yondashuvga amal qilish maqsadga muvofiq. Chunki, 1979-yilda sodir bo‘lgan Eron islom inqilobidan buyon Tehron tashqi siyosati jiddiy o‘zgarishlardan xoli bo‘lib kelmoqda. Garchi tashqi siyosatda o‘ziga xos yangi konsepsiyalar, qarashlarda biroz o‘zgarishlar yuz bergan bo‘lsa-da, islom omili Eron tashqi siyosatining fundamental mafkurasi bo‘lib qolmoqda.

ASOSIY QISM

Eronning tashqi siyosati, yadroviy dasturi va Yaqin Sharq mintaqasi mamlakatlari bilan bog‘liq siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy hamda xavfsizlik mavzusiga oid masalalar yuzasidan G‘arb olimlari tomonidan amalga oshirilgan bir qator fundamental tadqiqotlar mavjud. Ular orasida M. Varnaar, Sh. Xunter, B. Rumer, D. Smit, E. Uzun, L. Zaccara, P. Sebastian, B. Rubin, C. Sherrill, R. Takeyh, G. Peter, R. H. Dekmejan, H. Simmonian, B. Stefen, A. Cooley, J. Xerzershav, P. Kelli kabi olimlarning ishlari alohida o‘rin tutadi. Shuningdek, o‘z tadqiqotlarida Eronning jahon iqtisodiyoti va siyosatidagi o‘rni hamda rolini o‘rganishga e‘tibor qaratgan ko‘pgina eronlik olimlardan K. Elaheh, B. Muhammad Ali, A. Ehteshami, R. Dehshiri, K. Barzegar, R. Ramazani, A. Maleki, D. Manochehr, E. Nader, Z. Said Hadi, D. Firouzabadiy va boshqa olimlarning asarlardan ushbu maqolani yoritishda qo‘llanildi. Eronning Markaziy Osiyo yo‘nalishidagi tashqi siyosiy strategiyasi va o‘zaro aloqalarga oid masalalarini mahalliy olimlardan A. Xaydarov, G. Yuldasheva, F. Karimov, A. Jalilov, S. Bo‘ronov va D. Xojimuratovlar tadqiq etishgan.

“Na G‘arb, Na Sharq, faqat Islom”. Tashqi siyosatning ushbu shiori dastlab Eronning musulmon mamlakatlari bilan aloqalarini mustahkamlash va shu orqali Eron islom inqilobini eksport qilish maqsadlarini nazarda tutgan edi. Aynan Eron islom inqilobini tahlil qilishda uni ikki guruhga, ya‘ni ichki va tashqi omillar orqali ko‘rib chiqish lozimdir.

Ichki omillar jumlasiga ko‘pgina musulmon mamlakatlarida siyosiy vaziyatning keskinlashuvi va iqtisodiy ahvolning og‘irlashuvi, mavjud taraqqiyotdan qoniqmaslik natijasida

o'zining tarixiy, madaniy-diniy ildizlariga qaytishga intilish, musulmon mamlakatlarida uzoq vaqtdan beri hal bo'lmayotgan turli mintaqaviy, diniy, hududiy muammolarning hal etilishiga ishonchsizlikning kuchayishi, shuningdek, Usmonlilar imperiyasi qulashi natijasida islom olami, ayniqsa Yaqin Sharq mamlakatlari modernizatsiya jarayonini boshidan kechirishi hamda siyosiy tuzum o'zgarib borgan sari din vakillari ijtimoiy hayotdan siqib chiqarila boshlandi. Bu esa diniy ekstremizmni jamiyatdagi o'zgarishlarga qarshi harakat sifatida yuzaga chiqardi, Yevropa davlatlarining Yaqin Sharqqa kirib kelishini musulmon dunyosida islom va musulmonlarga qarshi bosqinchilik sifatida baholaydigan kayfiyat vujudga keldi, bir qancha islom davlatlari va uning ta'siri sezilarli bo'lgan boshqa davlatlarda hukumat ham, muxolifat ham o'z obro'sini kuchaytirish va ommaning qo'llab-quvvatlashiga erishish uchun islom omiliga murojaat qilishi tobora kuchayib bordi.

Tashqi omillar haqida so'z yuritganda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish lozim: Yaqin Sharq mintaqasi jahonning eng muhim transport koridori, jahondagi eng yirik uch din – islom, yahudiy va xristian dinlarining kelib chiqish markazi ekanligi hamda dunyodagi mineral xom-ashyo resurslarining ulkan zaxiralari, jumladan jahon neft zaxirasining 61,7 foizi, tabiiy gazning 40,6 foizi aynan ushbu mintaqada joylashganligi yetakchi davlatlarning geosiyosiy manfaatlari doirasida islom omilidan foydalanish zaruratini vujudga keltirdi. Eron islom inqilobi islom faollari va jangarilarini ilhomlantirdi, ular uchun ruhiy madad vazifasini bajardi. “Jahon rivojlanishining islomiy yo'li” tarafdorlarining ko'pchiligi Eron islom inqilobi haqida gapirishar ekan, “Eronda bo'lib o'tgan hodisa ma'lum ma'noda, hatto, Muqaddas zaminning islom bag'riga qaytganidan yoki Usmonlilar imperiyasi barpo etilganidan ham ajoyibroq bo'ldi, chunki bu holda gap sivilizatsiya bosqichlari haqida borgandi; Erondagi islom inqilobi esa jahonshumul-tarixiy xususiyatga ega bo'lib, butun umma tarixida, shuningdek uning noislom dunyosi bilan o'zaro munosabatlarida burilish pallasi bo'lishi lozim edi”, deb ta'kidlashgandi. Ammo, aynan 1979-yilda yana bir voqelikning yuz berishi Eronning Yaqin Sharqdagi islom inqilobi g'oyasini tezda amalga oshishiga ma'lum ma'noda to'sqinlik qildi. Aynan shu yilda sovet qo'shinlarining Afg'oniston hududiga bostirib kirishi Yaqin Sharqdagi radikal guruhlarining Afg'onistonga yo'naltirilishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, bu vaziyat yetakchi arab monarxiyalari oldida o'z siyosiy rejimini saqlab qolish yo'lida juda qo'l keldi.

Ko'rfaz mintaqasi. Ushbu mintaqada Eron tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Ko'rfaz mintaqasi (KM) o'zining qulay geosiyosiy joylashuvi, boy tabiiy energoresurslari bilan alohida ajralib turadi. Bugungi kunda Ko'rfaz mintaqasining jahon siyosatidagi ahamiyati borasida hech qanday shubhaga o'rin yo'q. Mazkur mintaqada dunyo neft zaxirasining taxminan 65 foiz, gaz zaxirasining esa 30 foizini o'zida jamlagan. Shuningdek,

mintaqaning geosiyosiy ahamiyati uning Osiyo, Afrika va Yevropa qit'asining muhim xalqasida joylashgani bevosita bog'liq. Alohida qayd etish lozimki, Ko'rfaz mintaqasida joylashgan mamlakatlarni tarixiy jihatdan yagona etnik, diniy va madaniy o'ziga xoslik bir-biri bilan bog'lab turadi. Shu boisdan Ko'rfaz mintaqasi joylashgan hududga jahonning yetakchi davlatlari va mintaqada joylashgan davlatlar o'z ta'sirini o'tkazishga uringan va hozirda ham bu jarayon davom etib kelmoqda.

Tarixdan ma'lumki, Ko'rfaz mintaqasining shakllanishi 1970-yillarga, ya'ni mintaqada davlatlarining siyosiy mustaqillikka erishishi va mustaqil tashqi siyosatni amalga oshirishidan boshlanadi. Ko'rfaz mintaqasi o'z ichiga sakkizta mamlakatni qamrab oladi: Bahrayn, Iroq, Eron, Qatar, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA), O'mon va Saudiya Arabistoni. KMda joylashgan davlatlar o'rtasidagi geosiyosiy raqobatning avj olishi 1979-yilda Eronda sodir bo'lgan islom inqilobi bilan bevosita bog'liq. Birinchidan, mazkur inqilob mintaqadagi barcha mamlakatlarning islom diniga davlat mafkurasi sifatida qat'iy e'tibor qaratishiga turtki berdi. Ikkinchidan, Eron inqilobi KMda joylashgan arab mamlakatlarini "islom inqilobi eksporti"dan hukmron rejimni himoya qilish maqsadida o'zaro hamjihatlikka, barcha sa'y-harakatlarni o'zaro birlashtirishga undadi.

Ko'rfaz mintaqasi arab mamlakatlari o'rtasidagi siyosiy-iqtisodiy va madaniy integratsiya jarayonining faollashuvida yuqorida ta'kidlangan Eron islom inqilobi hamda Afg'onistonga sovet qo'shinlarining kiritilishi muhim rol o'ynadi. Ko'rfaz xavfsizligi va uning strategik mavqeyini o'z nazoratida ushlash maqsadida 1981-yil 25-mayda oltita arab mamlakati – O'mon, Qatar, Quvayt, BAA, Bahrayn va Saudiya Arabistoni tomonidan Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashiga (KADHK) asos solindi.

Ko'rfaz mintaqasidagi neft qazib chiqaruvchi arab mamlakatlarining siyosiy-iqtisodiy ittifoqini tuzish g'oyasi o'z tarixiga ega. 1976-yili O'mon Sultoni Qobus bin Said tashabbusi bilan Eron, Iroq, Quvayt, Bahrayn, Qatar, BAA, Saudiya Arabistoni va O'mon Sultonligining tashqi ishlar vazirlari ushbu mamlakatlar xavfsizligi va mudofaasini ta'minlash bo'yicha umumlashgan siyosatni ishlab chiqish haqidagi O'mon taklifini muhokama qilish uchun Masqatda uchrashdilar. Ammo, o'sha paytda vazirlar muammoning mohiyati bo'yicha kelisha olmadilar va uchrashuv natijasiz yakunlandi.

Shu bilan birga, 1976-yili mintaqadagi arab davlatlari o'rtasida mintaqaviy konsensusga erishish borasida yana bir urinish qabul qilindi. O'sha paytdagi Quvayt shahzodasi shayx Jobir al-Ahmad as-Sabah mintaqaga sayohat qildi. U safari davomida birgalikdagi kuchlar yordamida Ko'rfaz xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq muammolarni muhokama qildi. Quvayt nomidan u iqtisodiyot, siyosat, ta'lim va axborot sohasidagi hamkorlik bo'yicha o'zaro tashabbuslar uchun

mexanizm bo'lishi lozim bo'lsa, Ko'rfaz davlatlari ittifoqini tuzish taklifini rasmiy ravishda e'lon qildi. Ko'rfazdagi arab davlatlarining boshliqlari doimiy ravishda shunday tashkilot tuzish lozimligi haqida birgalikda faoliyat olib bordilar. Besh yil o'tsa ham Quvayt taklifi hali o'zining aniq timsolini topgani yo'q edi. Shunday bo'lsa-da, Eron islom inqilobi va arab monarxiya tuzumiga ichki va tashqi tahdidlarning ko'lamini kengayishi mintaqa arab davlatlarini birlashishiga sabab bo'ldi.

KADHKning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, uning a'zolari kengashi organlari tarmog'i orqali Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) bilan o'zaro hamkorlik qilmoqdalar. Masalan, IKTning a'zo davlatlar davlat boshliqlarining 1981-1987-yillardagi kengashlari Saudiya Arabistoni va Quvayt tashabbusi bilan o'tkazildi. KADHK mamlakatlari, ayniqsa, Saudiya Arabistoni va Quvaytning o'rtacha bo'lmagan moliyaviy imkoniyatlari ko'pincha ularga IHT orqali o'z siyosatlarini amalga oshirish imkonini beradi. KADHKning shunday xususiyati hatto ba'zi arab tadqiqotchilari tomonidan ham qayd qilinadi. KADHK shuningdek, boshqa xalqaro mintaqaviy tashkilotlar, shuningdek, BMT, YI va boshqalar bilan o'zaro munosabatlarni qo'llab-quvvatlashga intilmoqda. Siyosiy fanlar doktori, professor Muhammadolim Muhammadsiddiqovning ta'kidlashicha, siyosatchilar va Fors ko'rfazi mamlakatlarining siyosiy yo'lbo'shchilari "Arabiston oltiligi"ning tashqi siyosiy strategiyasini to'liq aniqlashga muvaffaq bo'lganlar. Biroq, arab milliy jurnallarida bu to'g'risidagi bahslar hamon to'xtagani yo'q. Ular, birinchidan, dunyoda yuz bergan ulkan global o'zgarishlar tufayli, ikkinchidan, isroilliklar va falastinliklar o'rtasidagi qarama-qarshilikning murosasizligi, uning mintaqa davlatlari xavfsizligiga ta'sirining kuchayib borishi bilan bog'liq.

XX asrning 80-yillari boshlaridayoq KADHK zamonaviy dunyoning kuchli moliyaviy-iqtisodiy markaziga aylandi. Masalan, 1981-yil KADHK davlatlari ishlab chiqarilgan yalpi milliy mahsulotning umumiy hajmi 191 mlrd AQSh dollaridan ziyodni tashkil etdi. Bu KADHKga o'sha paytdagi muhim markazlar AQSh, Yevropa Hamjamiyati, Yaponiya, Sobiq Sovet Ittifoqi, Xitoy, Braziliya, Kanadadan keyingi sakkizinchi o'rinni egallash imkonini berdi. 1983-yil KADHKning uchta yirik a'zolari hisoblangan Saudiya Arabistoni, Quvayt va Birlashgan Arab Amirli tomonidan xorijga chiqarilgan kapitallar hajmi 300 mlrd AQSh dollariga yetdi. Neft xom ashyosining o'rtacha narxi 1972-yildagi bir barreli uchun 2,8 dollardan 1981-yil 34 dollarga o'sishi bilan 70-yillardagi "neft shov-shuvi" natijasida ushbu vaziyat yuz berdi. KADHK a'zolarining neft eksportidan tushayotgan o'rtacha daromadlar miqdori 10 mlrddan 163 mlrdga o'sdi.

Darhaqiqat, Eron tashqi siyosatining hayotiy muhim manfaatlari aynan Ko'rfaz mintaqasi bilan chambarchas bog'liq. Olim Tohirxoniy Alining siyosiy fanlar nomzodligi dissertatsiyasida

Eronning Fors ko'rfazi mintaqasidagi siyosiy manfaatlari batafsil o'rganilib, unda mazkur manfaatlar ikki muhim guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga energetik (neft) omili, ikkinchi guruhga esa islom omili kiritiladi. Tohirxoniy Alining qayd etishicha, Fors ko'rfazi 2060-yilgacha dunyoning eng boy neft mintaqasi sifatida o'z o'rnini saqlab qoladi. Muallif islom omilida asosiy urg'uni Eron tomonidan Fors ko'rfazida shialar manfaatlarining himoya etilishiga e'tibor qaratiladi. Shu jihatdan, har ikkala omilni Eronning Ko'rfaz mintaqasidagi tashqi siyosatida strategik manfaatlar deb baholash mumkin.

Tamaddunlar muloqoti. Eron Islom Respublikasining beshinchi Prezidenti Muhammad Hotamiy tomonidan 1997-yilda e'lon qilingan tashqi siyosat konsepsiyasi. Ushbu konsepsiya (گفتگوی تمدن ها) Eronni xalqaro izolyatsiyadan xalos etish va G'arb mamlakatlari bilan aloqalarni yumshatish maqsadida ishlab chiqilgan. U o'zining prezidentlikka qasamyod qilish marosimida shunday degan edi: "Biz sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot va tashqi dunyo bilan aloqalarni qayta ishlab chiqish tarafdorimiz". E'tibor qilish zarurki, aynan Hotamiyning tashqi siyosat tashabbusi natijasida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2001-yilni BMT shafeligida Sivilizatsiyalar muloqoti yili deb e'lon qilishga qaratilgan rezolyutsiya qabul qilindi. Buning natijasida BMT tomonidan turli konferensiyalar, sammitlar va forumlar o'tkazildi.

Sivilizatsiyalar o'rtasida muloqotni yo'lga qo'yish g'oyasi ilk marta 1972-yilda avstriyalik faylasuf Gans Kexler tomonidan ishlatilgan. Hotamiyning "Tamaddunlar muloqoti" doktrinasi o'z-o'zidan Samuel Hantingtonning "Tamaddunlar to'qnashuvi"ga qarama-qarshi tezis hisoblanadi. Eronning siyosiy geografiya bo'yicha professori Muhammad Rizo Hofizneyaning yozishicha, "Tamaddunlar muloqoti" paradigmasi birinchi va uchinchi dunyo, shimol, janub, boy va kambag'al degan bo'linishlarni oldini olish, jahon hamjamiyatining xalqaro munosabatlardagi fenomenal yaqinlashuvi hamda Eronning xalqaro sahnadagi tashqi siyosiy pozitsiyasini mustahkamlanishiga turtki bo'ldi.

Shia hiloli. Yaqin Sharqdagi shiaga e'tiqod qiluvchi aholisi mavjud davlatlarni birlashtirishga qaratilgan Tehronning tashqi siyosat konsepsiyasi. Shialar yashaydigan Yaqin Sharqdagi hududlar Tehron tomonidan xuddi hilol singari tasvirlangan. "Shia hiloli" atamasi birinchi marta 2004-yilda Iordaniya qiroli Abdulloh II tomonidan ishlatilgan. Aslida, mazkur nazariya Eron siyosatida 1960-yillardan buyon qo'llanilgan. Abdulloh II o'z intervyusida Saddam Husaynning sunniy rejimi ag'darilganidan keyin Erondan Iroq va Suriya orqali Livanga tarqaladigan "Shia hiloli" tug'dirishi mumkin bo'lgan xavfdan ogohlantirib, uning Fors ko'rfazi davlatlari va butun mintaqada beqaror vaziyatni yuzaga keltiruvchi xususiyati haqida aytib o'tgan edi.

2003-yildan so'ng mintaqada yuzaga kelgan tektonik o'zgarishlar, jumladan Suriyada Bashar al-Assad rejimining g'alabasi, Iroqda sunniylar hokimiyatining mag'lubiyati va

Livandagi shia jamoalarining ustunligi Eronning mazkur geosiyosiy ambitsiyasini amalga oshirishini yanada yengillashtirdi.

“Shia hiloli”da Bahrayn (65-75%), Livan (45-55%), Iroq (45-55%), Yaman (35-40%), Quvayt (20-25%), Suriya (15-20%), Saudiya Arabistoni (10-15%), Qatar va BAA (10%) hamda O‘mon (5-10%) davlatlari shialar yashaydigan tegishli makonni birlashtirishni nazarda tutadi. Bu davlatlardan tashqari, “Shia hiloli” konsepsiya xaritasiga kiritilmagan bo‘lsa-da, aholisining aksariyati shia musulmonlaridan tashkil topgan boshqa davlatlarga ham Tehron tomonidan jiddiy e‘tibor qaratiladi. Jumladan, Ozarbayjon aholisining taxminan 85% qismi shia mazhabiga e‘tiqod qiladi. Pokistonda shialar jamoasi aholining 15% qismini, Afg‘onistonda esa shia mazhabiga e‘tiqod qiladigan hazoralar aholining taxminan 10%ni tashkil etadi. Shuningdek, ma‘lumotlarga ko‘ra, Turkiyaning ham 10%ga yaqin aholisi shia musulmonlari hisoblanadi.

Tehron rejimi ichki ijtimoiy-siyosiy muhitni ikki omil bilan ushlashga yoki chalg‘itishga intilmoqda. Birinchisi Amerika birinchi raqamli dushman, degan o‘zgarmas tezis bo‘lsa, ikkinchisi islom olamida “Shia hiloli” formulasi asosida barcha shialarni birlashtirish. Ammo, birinchi qarash Eronda o‘z ahamiyatini yo‘qotib ulgurdi. Tehron rejimini ushlab turgan omil esa aynan ikkinchisi, ya‘ni shia omili hisoblanadi. Agarda Yaqin Sharqdagi shia guruhlar bilan aloqalar butkul uzilsa, bu Tehron uchun istiqbolda fojeali yakunlanishi mumkin.

Sharqqa nigoh. XXI asrning 20 yilligida Eronning G‘arb bilan bog‘liq munosabatlari yumshab borishi o‘rniga aksincha yanada sovuqlashishda davom etdi. Eron yadroviy dastur masalasidagi muammolar o‘z yechimini topmadi. Shu boisdan Eronning tashqi siyosatida Sharq makonining ustuvorligi tobora ortib bordi. Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Sarvar Fayzullayev tomonidan yozilgan dissertatsiyada Eron tashqi siyosatining ushbu konsepsiyasi haqida quyidagicha qayd etiladi: “Eronning “Sharqqa nigoh” siyosati ittifoqchilik aloqalarini kengaytirish hamda Eronning G‘arb kuchlari ta‘siriga moyilligini kamaytirish maqsadida Sharqiy yarimshardagi, xususan, Osiyodagi davlatlar bilan mustahkam siyosiy, iqtisodiy va strategik aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan strategiya sifatida qabul qilindi. Mahmud Ahmadinajod, Hasan Ruhoniy va Ibrohim Raisiy Eronning xalqaro munosabatlarini diverfikatsiya qilish va iqtisodiy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga intilib, “Sharqqa nigoh” siyosatini olib borishgan. Biroq, ularning siyosatni amalga oshirishi turlicha bo‘lib, aniq konseptual asoslarni, geografik ustuvorliklarni, institutsional o‘lchovlarni hamda tashqi va ichki kuchlar aralashuvini namoyon etadi”.

Eronning “Sharqqa nigoh” nomli tashqi siyosatining yorqin ifodasi uning Shanxay hamkorlik tashkilotiga to‘laqonli a‘zo sifatida qabul qilinishi hisoblanadi. ShHT tarkibida Eronning paydo bo‘lishi tashkilotning xalqaro munosabatlar tartibotidagi mavqeyiga bir

tomondan imkoniyatlar omili sifatida, boshqa tomondan muammolar omili sifatida o'z ta'siri ko'rsatadi. Buni quyidagicha tahlil etish mumkin:

birinchidan, Eronning a'zo bo'lishi ShHTning iqtisodiy va energetik salohiyatini oshiradi. Eron dunyodagi to'rtinchi yirik neft ishlab chiqaruvchisi va katta tabiiy gaz zaxiralariga ega va uning a'zoli boshqa a'zo davlatlar, xususan, asosiy energiya iste'molchilari bo'lgan Xitoy va Rossiyaga ham foyda keltiradi. Eronning a'zo bo'lishi, shuningdek, ShHTga a'zo davlatlar iqtisodiyotini yanada integratsiyalashuviga yordam beradi, bu esa o'z navbatida mintaqaviy savdo va tijoratni rivojlantirishga xizmat qiladi;

ikkinchidan, Eronning a'zo bo'lishi ShHT xavfsizligi va barqarorligini oshiradi. Eron Yaqin Sharqdagi muhim o'yinchi va uning a'zoli hozirda terrorizm, ekstremizm va mojarolar kabi qator muammolarga duch kelayotgan mintaqani barqarorlashtirishga yordam beradi;

uchinchidan, Eronning a'zo bo'lishi ShHTning jahon miqyosidagi mavqeyini mustahkamlaydi. Eron yirik mintaqaviy kuch va uning a'zoli ShHTning Yaqin Sharq va undan tashqarida ta'sirini oshiradi. Eronning a'zo bo'lishi ayni paytda Qo'shma Shtatlar va uning ittifoqchilari hukmronlik qilayotgan mintaqadagi kuch dinamikasini muvozanatlashga ham yordam beradi;

Shuningdek, Eronning a'zoli natijasida tashkilot oldida ayrim muammolar ham paydo bo'lishi ehtimoli mavjud:

birinchidan, ShHTning Kollektiv G'arbga, aniqrog'i AQShga qarshi qaratilgan blokka aylanib borishi ehtimoli;

ikkinchidan, ShHT tarkibida ikkita yirik sanksiyalar ostidagi davlatlarning mavjudligi mintaqalararo hamkorlik yoki uchinchi tomon bilan munosabatlarga zarar berishi mumkinligi (ko'proq Markaziy Osiyo davlatlari uchun);

uchinchidan, dunyo tartibotida yadroviy qurollanish tezlashishiga ma'lum ma'noda turtki berishi. Garchi hozircha Eron yadroviy dasturi bilan harakat qilayotgan bo'lsa-da, 4 ta yadroviy davlatlar oilasida bo'lish tashkilotdagi har bir a'zoning teng huquqlilik holatiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin;

to'rtinchidan, tashkilotda qarorlar qabul qilish jarayonining yanada murakkablashishi. Zero, Eron ham o'ziga xos tashqi siyosatga, ayniqsa turli mintaqaviy va xalqaro nizolarga aralashuvchi davlat ekanligi qarorlar qabul qilish jarayonini og'irlashishiga olib kelishi mumkin.

Umuman, Eron tashqi siyosat konsepsiyalari xususida zikr etilgan yuqoridagi ma'lumotlar Eron tashqi siyosatining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalabgina qolmasdan, balki uning Yaqin Sharq mintaqaviy tartibotidagi ta'sirchan rolini baholashga imkon beradi. Bu haqida sharqshunos olim Suhrob Bo'ronovning quyidagi tahliliy fikrlarini keltirib o'tirish o'rinli bo'ladi: "So'nggi

vaqtlarda Eron Yaqin Sharq mintaqasidagi ta'sirini mustahkamlashda jiddiy choralar ko'rayotganini kuzatib turibmiz. Fors tamaddunining bugungi sohibi mintaqaviy va xalqaro tartibotda qanday o'ringa ega? U global tartibotga qay darajada ta'sir o'tkaza oladi? Quyidagi omillar bu savollarga ma'lum ma'noda javob bo'lishi mumkin:

geografik joylashuv. Eron jahonning 5 ta strategik mintaqasi bilan chegaradosh yoki ularni bog'lab turuvchi strategik markaz hisoblanadi. Bular Yaqin Sharq, Janubiy Kavkaz, Kaspiy dengizi, Markaziy va Janubiy Osiyo. Uch dengiz, ya'ni Fors va O'mon ko'rfazi (Ormuz bo'g'ozi) hamda Kaspiy dengizi dunyo dengiz savdosi yo'llari va energetika transportining o'zaro bog'lanishida Eronning geografik o'rnini yuqori baholashga imkon beradi.

energetika resurslari zaxirasi. Eron gaz zaxirasi bo'yicha dunyoda 2-o'rinni, neft zaxirasi bo'yicha 4-o'rinni egallaydi. Garchi Eron neft zaxirasi bo'yicha 4-o'rinda bo'lsa-da, uni ta'sir quroliga aylantirishda muhim o'yinchi hisoblanadi. Jumladan, Ormuz bo'g'ozidan kuniga 20 mln barrelgacha neft mahsulotlari o'tadi. Bu butun dunyo neft ehtiyojlarining 20% demakdir. Tabiiyki, Ormuz bo'g'ozida Eronning ta'siri katta bo'lib, undan ba'zi vaqtlarda G'arbga qarshi hamda neft import qiluvchi boshqa davlatlarga bosim o'tkazish vositasi sifatida foydalanib keladi. Shuningdek, Saudiya Arabistonining asosiy neft konlari joylashgan Katif, Sihat va Tarut kabi shaharlar, ayniqsa, dunyodagi eng yirik neft konlaridan biri hisoblangan Javhar neft koni joylashgan hududning aksariyat aholisi shialar hisoblanadi.

Shialar yetakchisi. Ma'lumki, musulmon olamida Eron o'zini shialar manfaatlarini himoya qiluvchi yagona yetakchi sifatida ma'lum qilgan. Shu maqsadda Eron tomonidan "Shia hiloli" nomli konsepsiya ishlab chiqilgan.

Sanksiyalar kushandasi. Eron Amerikaning qariyb yarim asrlik sanksiyalariga qarshi kurashda tajribasi bor dunyoning yagona davlati, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunga Eronning neft va gaz eksporti, qolaversa xalqaro maydonda Xitoy va Rossiyaning qo'llovi ham ma'lum ma'noda katta rol o'ynadi.

Jiddiy o'yinchi. Eron bugungi jahon tartibotida muhim o'rin egallayotgan ShHT, BRICS, OPEC, IHT kabi nufuzli tashkilotlarning a'zosi hisoblanadi. Yana bir misol. Eron tomonidan dastaklanadigan xusiylar tomonidan so'nggi vaqtlarda Qizil dengizga qarata qilinayotgan hujumlar jahondagi dengiz yo'laklari xavfsizligini so'roq ostida qoldirdi. Shuningdek, Suriya, Livan, Iroq, Yaman va Afg'oniston singari strategik ahamiyatga ega davlatlarda Eron Islom inqilobi korpusi tomonidan yaratilgan turli guruhlar faoliyat ko'rsatadi. Xalqaro harbiy qudrat indeksining 2024-yil natijalariga ko'ra, Eron Yaqin Sharqning Turkiyadan keyingi qudratli davlati bo'lib qolmoqda. Unutmaslik lozimki, Turkiya NATO a'zosi. Shuningdek, eronliklar yadroviy dastur bosqichi o'z yakuniga etishi uchun oz muddat qolganini aytishmoqda".

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Eron Islom Respublikasi tashqi siyosati Yaqin Sharq mintaqaviy tartibotiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu borada eng muhim 3 ta omilni alohoda ta'kidlash mumkin. Bular islom omili, energetika omili va Eronning yadroviy qurolga ega bo'lishni maqsad qilgan harbiy omillardir. Tehron tashqi siyosati 1979-yildan buyon "Na G'arb, na Sharq, faqat Islom", "Tamaddunlar muloqoti", "Shia hiloli" va "Sharqqa nigoh" singari konsepsiyalar bilan Yaqin Sharqdagi ta'siri va mavqeyini mustahkamlashga harakat qildi. Ma'lum ma'noda, yetakchi davlatlar va mintaqaning boshqa aktorlari Eronning Yaqin Sharq tartibotidagi tashqi siyosiy ta'sirini e'tiborga olishi va hattoki, u bilan hisoblashishi zarur ekanligini anglab yetgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Одилқориев Х.Т., Раззоков Д.Х. (2008) Сиёсатшунослик, Дарслик. Тошкент: "O'qituvchi" НМИУ. – P.240.
2. Bo'ronov S.M., Azimov H.Y. Sharq mamlakatlarida xavfsizlik muammolari va mojarolar. – T.: EFFECT-D, 2023. – B.70-71.
3. Гойибназаров Ш. Халқаро терроризм: илдизи, омиллари ва манбалари. – Т.: O'zbekiston, 2013. – Б. 151 .
4. Мелкумян Е.С. Регион Персидского залива в мировой политике: история и современность // Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского, 2015, № 3. – С.82-83.
5. Бекмурадов С.Т. Форс Кўрфази Араб Давлатлари Ҳамкорлик Кенгаши (ФКАДХК) // Хорижий Шарқ мамлакатлари тарихий жараёнлари ва уларни ўрганишнинг долзарб муаммолари. Вазирлик миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Б. 245.
6. Ланда Р.Г. История арабских стран. – М.: 2005. – С.153.
7. Муҳаммадсиддиқов М.М. Хорижий Шарқ ва Ғарб мамлакатларида ижтимоий-сиёсий жараёнлар. Ўқув қўлланма. – Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2013. – Б.96.
8. Тахерхани Али. Политеские интересы Ирана в Персидском Заливе и их особенности в процессе изменяющегося мира. Автореф. кан. пол. наук. – Душанбе, 2014. – С.4-15.
9. Диалог цивилизаций. 07.12.2019. <https://iran1979.ru/dialogue-of-civilizations/>
10. Mohammad Reza Hafeznia. Dialogue Among Civilizations as a New Approach for International Relations. – P.25-26. <https://ensani.ir/file/download/article/1599973615-10293-1-123.pdf>

11. Altynbek A., Yermekbayev A., Khairuldayeva A. Religious and Political Factor in Iran's Foreign Policy in Central Asia. Халықаралық қатынастар және халықаралық құқық сериясы. No1 (101). 2023 <https://bulletin-ir-law.kaznu.kz/>. – P.87.
<https://scholar.google.com/scholar?q=RELIGIOUS+AND+POLITICAL+FACTOR+IN+IRAN%E2%80%99S++FOREIGN+POLICY+IN+CENTRAL+ASIA>
12. Bo'ronov S., Nazarova F. Geosiyosat: atamalar va iboralar lug'ati. – T.: Tilsim, 2023. – B.261-262.
13. Fayzullayev S.A. Eron Islom Respublikasining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo vektori. Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2024. – B.13.
14. Mamadjonov, A. B. (2023). ANALYSIS OF THEORETICAL AND PRACTICAL APPROACHES TO THE CONCEPT OF" SOFT POWER". Oriental Journal of History, Politics and Law, 3(03), 272-279.
15. Mamadjonov, A. B. O. G. L. (2021). TURKIYANING XALQARO TASHKILOTLARDAGI O 'RNI VA ROLI: NATO MISOLIDA. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 427-435.
16. Azimov, H. Y. (2022, June). THE ROLE OF THE SYRIAN CRISIS IN ENSURING SECURITY IN THE MIDDLE EAST. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 90-92).
17. Yakubovich, A. H. (2019). The emergence of the Syrian crisis and the impact of the external forces on it. Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research, (4 (6)), 92-97.
18. Azimov, H. Y. (2022). Main directions of modern international security approaches. International journal of social science research and review, 5(2), 151-157.
19. Boronov, S. (2022). Internal and external factors of taliban origin. Journal of Social Research in Uzbekistan, 2(02), 15-23.